

IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH BO‘YICHA DAVLAT SIYOSATI

Usmonov Murodjon Do‘smurot o‘g‘li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,

“Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchi

Ashurov Mirjahon Shuhratovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,

“Iqtisodiyot” fakulteti talabasi

Annotatsiya. Maqola iqtisodiyotni raqamlashtirishning mohiyati, davlat siyosati va amaliyoti, shuningdek, raqamli iqtisodiyotning rivojlanish strategiyalari va natijalarini yoritadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ma’lumotlar strategik resursga aylanishi, sun’iy intellekt va algoritmlarning mehnat unumdorligi va boshqaruv samaradorligini oshirishdagi roli, shuningdek, elektron hukumat, soliq va boshqa sohalarda raqamlashtirishning ijobiy natijalari keltiriladi. Maqola davlatning infratuzilma, kadrlar tayyorlash, normativ-huquqiy mexanizmlar va innovatsiyalarni rag‘batlantirish orqali raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirayotgan kompleks chora-tadbirlarini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, davlat siyosati, E-government (elektron hukumat), sun’iy intellekt, ma’lumotlar strategiyasi, raqamli infratuzilma, elektron xizmatlar, soliq ma’muriyatchiligi, IT-parklari va innovatsion klasterlar, raqamli savodxonlik

Kirish. So‘nggi yillarda iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirish global tendensiyaga aylangan. Iqtisodiyotni raqamlashtirish nafaqat texnologik yangilanishni, balki iqtisodiy o‘shishning sifat jihatdan yangi modeliga o‘tishni anglatadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ma’lumotlar strategik resursga aylanadi, algoritmlar va sun’iy intellekt esa mehnat unumdorligi va boshqaruv samaradorligini oshirishning asosiy vositalari hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, davlat raqamlashtirishni milliy raqobatbardoshlikni ta’minlovchi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilaydi. Kirishda raqamli iqtisodiyotning maqsadlari, vazifalari va ahamiyati qisqacha ta’riflanadi.

Asosiy qisim

Iqtisodiyotni raqamlashtirish — bu iqtisodiy jarayonlar, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, boshqaruv va institutsional tizimlarni zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tubdan transformatsiya qilish jarayonidir. Davlat siyosati nuqtai nazaridan raqamlashtirish nafaqat texnologik yangilanish, balki iqtisodiy o‘shishning sifat jihatdan yangi modeliga o‘tishni anglatadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ma’lumotlar strategik resursga aylanadi, algoritmlar va sun’iy intellekt esa mehnat unumdorligi hamda boshqaruv

samaradorligini oshiruvchi asosiy vositalar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli davlat raqamlashtirishni milliy raqobatbardoshlikni ta‘minlovchi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilaydi.

Davlatning raqamli iqtisodiyot sohasidagi siyosati quyidagi asosiy maqsadlarga yo‘naltiriladi:

- iqtisodiy samaradorlikni oshirish va tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish
- davlat boshqaruvida shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish
- xususiy sektor va innovatsion tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratish
- inson kapitalini rivojlantirish va raqamli tafovutni qisqartirish
- global raqamli bozorlar bilan integratsiyani chuqurlashtirish

Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun davlat siyosati normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar tayyorlash va innovatsiyalarni rag‘batlantirish kabi kompleks vazifalarni o‘z ichiga oladi.

“Islohotlar muvaffaqiyatini ta‘minlovchi muhim yo‘nalishlardan biri iqtisodiyotni raqamlashtirishdir. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o‘tish kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalar sirasiga kiritilgan. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, balki ortiqcha xarajatlarni qisqartiradi va korrupsiyaning oldini oladi.

Mutaxassislarning ta‘kidlashicha, raqamli iqtisodiyot noldan boshlab yaratilishi lozim bo‘lgan qandaydir boshqacha iqtisodiyot emas. Bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellar yaratish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko‘chirish deganidir.

Taraqqiyot strategiyasining uchinchi yo‘nalishida raqamli iqtisodiyotni asosiy drayver sohaga aylantirib, hajmini kamida 2,5 baravar oshirish va eksportni 500 million dollarga yetkazish maqsadi belgilangan. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar ko‘lami keng. Ularning asosiy jihatlari odamlarning og‘irini yengil qilish, raqamli qulayliklarni soddalashtirish, eng zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan.”¹

“Taraqqiy etgan davlatlar qatoriga qo‘shilishimiz uchun, eng avvalo, ilg‘or zamonaviy axborot-kommunikatsiya, internet hamda raqamli texnologiyalar sohasidagi bilimlarni chuqur egallash orqali yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish kerak. Negaki, biz geografik joylashuvimizga ko‘ra, quruqlik orqali yirik suv havzalaridagi portlarga chiqishimiz uchun kamida ikki davlat chegarasidan o‘tishimizga to‘g‘ri keladi. Bu vaqt nuqtayi nazaridan ham, iqtisodiy jihatdan ham jahon bozoridagi o‘rnimizga salbiy ta‘sir qilishi bor gap. Buning yechimi aql-zakovat,

¹ 2020 yil 25 yanvardan chiqa boshlagan. “YANGI O‘ZBEKISTON” Ijtimoiy-siyosiy gazetasining, № 140 (662), 2022 yil 13 iyul, chorshanba kundagi sonining, Raqamlashtirish to‘g‘risidagi bo‘limi.

yangi innovatsiyalar va malakali kadrlar salohiyati bilan bevosita bog‘liq.

Tabiiyki, bugun IT parklarda 11 mingdan ziyod yosh ishlayotgani, “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida o‘qib chiqqan yigit-qizlar soha kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratayotgani barchamizni mamnun etadi.

Yana bir muhim jihat — mamlakatimizda aholi eng ko‘p to‘qnash kelayotgan sohalarni raqamlashtirish, odamlarning og‘irini yengil qilishga ustuvorlik berilyapti. Jumladan, sog‘liqni saqlash, kadastr, ijtimoiy himoya, qishloq xo‘jaligi, ta‘lim yo‘nalishlarini raqamlashtirish bo‘yicha amaliy jarayonlar boshlandi va bu ijobiy samaralarini bermoqda. Xususan, aholi maskanlarini mobil internet bilan qamrab olish darajasi 2017 yilda 30 foiz bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda 96 foizni tashkil etmoqda. Yoki 2017 yilda sohadagi eksport hajmi bor-yo‘g‘i 600 ming dollarni tashkil etgan bo‘lsa, o‘tgan yili 46 million dollarga, joriy yilning birinchi choragida esa 16 million dollarga yetgan.

Raqamlashtirishning kundalik hayotimizda doimiy o‘rin egallashi uchun tizimli yondashuv lozim. Sal kam o‘n yildan buyon elektron hukumat tizimini rivojlantirishga intilib kelamiz. Samaralar esa faqatgina so‘nggi yillarda ko‘zga tashlana boshladi. Birgina bank plastik kartasi misolida olaylik. Ilgarilari bank kartalarida mablag‘ bo‘lsa-da, undagi pulni sarf qilish yoki naqdashtirish imkoniyati juda ayanchli holatda edi. Endi esa bank mijozlari onlayn xaridlarni amalga oshirish, mobil qurilmalar yordamida pul mablag‘larini erkin o‘tkazish imkoniyatiga ega.

Tabiiyki, mazkur holatlarni ijobiy baholash, e‘tirof etish mumkin. Chunki raqamlashtirishga oid dasturlar xalqimiz, qolaversa, tadbirkorlarimiz xohish-istaklarini to‘g‘ri anglash imkonini beradi.

Biroq ayrim muammolar borki, ularning yechimini qisqa fursatda hal qilish lozim. Birinchidan, raqamlashtirish “ma’lumotlar ombori”dir, ular juda katta hajmdan iborat. Ulkan ma’lumotlar oqimini saqlash va qayta ishlash bo‘yicha turli platformalarni kengaytirish zarur. Ikkinchidan esa, mazkur dasturlar ijrosini ta’minlashda amalga oshirish mexanizmlari va moliyalashtirish manbalari ko‘rsatilgan, ularning monitoring jarayonida jamoatchilik nazorati kuchaytirilishi muhimdir.

Prezidentimizning 2021 yil 17 fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori amlakatimizda bu boradagi innovatsiyalarni iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga joriy etish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirishda muhim qadam bo‘ldi. Chunki qarorda huquqiy rejim, institutsional asoslar, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, xalqaro va milliy standartlar, sun’iy intellekt joriy qilinadigan ustuvor soha va tarmoqlar, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalari qamrab olingan.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali xalqimiz farovonligini ta'minlaydigan yorqin kelajakni ko'zlar ekanmiz, sun'iy intellektni joriy qilish uchun zarur sharoitlarni yaratish, shubhasiz, bugungi kunning dolzarb va ustuvor vazifasidir.”²

Davlat siyosati raqamli iqtisodiyotning tezkor rivoji bilan bog'liq xavf va muammolarni ham hisobga olishi lozim. Shu sababli quyidagi yo'nalishlarda huquqiy mexanizmlar ishlab chiqiladi:

- shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish
- raqamli platformalar va monopoliyalarni tartibga solish
- elektron savdo va raqamli shartnomalar huquqiy maqomini belgilash
- kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyalarini tartibga solish

“So'nggi yillarda hayotimizning barcha jabhalariga raqamli texnologiyalar jadallik bilan kirib borishi tufayli yangi ko'rinishdagi iqtisodiy muhit, ya'ni raqamli iqtisodiyot ekotizimi vujudga kelmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va hududlarda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish jarayonlari va holatini kuzatish, natijalarini ko'rsatkichlarda aks ettirish va ulardan tegishli xulosalar chiqarishda foydalanish soha statistikasini yanada takomillashtirish, uning nazariy-uslubiy jihatlarini xalqaro talablar hamda milliy qonunchilik asosida rivojlantirishni talab etadi.

Shuni inobatga olgan holda, “Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasi hamda 2020–2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning milliy strategiyasi asosida o'tgan davr mobaynida jarayonlarni statistik baholash tizimini joriy etish bo'yicha qator ijobiy natijalarga erishildi. Eng avvalo, Davlat statistika qo'mitasi va Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan raqamli iqtisodiyotning rivojlanish holati to'g'risida statistik ma'lumotlarni to'plash va shakllantirishda yagona yondashuv hamda metodologiya joriy etildi.

Mazkur uslubiyot asosida “Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat” yig'ma ko'rsatkichlar hisoblab chiqilib, e'lon qilindi. Uning tarkibiga kontent va media hamda elektron savdo faoliyatlari ham qamrab olindi. Ko'rsatkichlarni shakllantirishda norasmiy sektor qamrovini ta'minlash maqsadida 2021 yildan boshlab axborot texnologiyalari sohasida mahsulotlar ishlab chiqarish, savdo va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazilyapti.

Kuzatuvlarning barcha hududlarda planshetlar yordamida amalga oshirilishi ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash uchun sarflanadigan vaqtni 10 barobar qisqartirdi. Statistik hisobotlarni internet orqali onlayn qabul qilishning eStat 4.0 avtomatlashtirilgan axborot tizimi yaratildi va 120 turdagi hujjatni qabul qilish yo'lga

² 2020 yil 25 yanvardan chiqa boshlagan. “YANGI O'ZBEKISTON” Ijtimoiy-siyosiy gazetasining, № 140 (662), 2022 yil 13 iyul, chorshanba kundagi sonining, Iqtisodiyotning asosiy drayver haqida Nodir Jumayev, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, iqtisodiyot fanlari doktori, professor tadqiqotlari.

qo'yildi. Buning natijasida hisobotlarni qabul qilish va qayta ishlash vaqti 2 karra qisqardi.

Yurtimizda ilk bor o'tkazilishi rejalashtirilayotgan aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirlarini internet hamda planshetlar yordamida o'tkazish uchun zarur axborot tizimi ishlab chiqildi va hozir yakuniy sinov ishlari olib borilmoqda. 30 dan ortiq manfaatdor vazirlik va idora o'rtasida o'zaro elektron ma'lumotlar almashinuvi integratsiya qilindi. Endilikda statistik ma'lumotlardan foydalanuvchilar ularni izlab vaqtlarini yo'qotmaydi yoki qo'mitaga xat bilan murojaat qilib o'tirmaydi. Ularning hammasi qulay shaklda tematik veb-saytlar orqali taqdim etib borilyapti.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda, qo'mitaning stat.uz rasmiy veb-saytining yangi ko'rinishi, aholini ro'yxatga olish tadbirlarini yoritib borish bo'yicha aholi.stat.uz, gender ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan gender.stat.uz, Milliy barqaror rivojlanish maqsadlarining (BRM) bajarilishini monitoring qilishning nsdg.stat.uz, uslubiy nizomlar va yo'riqnomalar bilan tanishish imkonini beruvchi lib.stat.uz veb-saytlari yaratildi va ishga tushirildi.

O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portalining yangi talqini ishlab chiqilib, hozirgi kunda mazkur portalda 154 ta vazirlik va idoraning 4 mingdan ortiq ma'lumoti e'lon qilindi. Mazkur ishlar natijasi qator xalqaro reytinglarda o'z ifodasini topmoqda. Jumladan, 2021 yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Global ma'lumotlar barometri (The Global Data Barometer — GDB) reytingida 58-o'rinni egalladi. Mazkur reytingda 100 dan ortiq mamlakat qatnashganini inobatga olsak, yurtimiz uning asosiy modullari hisoblangan "Ochiq ma'lumotlar tashabbusi"ni o'z ichiga olgan "Imkoniyatlar" modulida 80 ball to'plab 8-, "Boshqaruv" modulida 52 ball to'plab, 19-o'rinni egalladi."³

Iqtisodiyotni raqamlashtirish bo'yicha davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi — elektron hukumat tizimini rivojlantirishdir. E-government:

- davlat xizmatlarini avtomatlashtirish
- byurokratik to'siqlarni kamaytirish
- korrupsiya xavfini pasaytirish
- ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish (data-driven governance)ni joriy etish

Natijada davlat va biznes, davlat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar yanada samarali va ochiq tus oladi.

"2020 yilning 5 iyun kuni Vazirlar Mahkamasining "Soliq ma'muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan Davlat soliq qo'mitasining

³ 2020 yil 25 yanvardan chiqa boshlagan. "YANGI O'ZBEKISTON" Ijtimoiy-siyosiy gazetasining, № 140 (662), 2022 yil 13 iyul, chorshanba kundagi sonining, Iqtisodiyotning asosiy drayver haqida Zohidjon Ziyayev, Davlat statistika qo'mitasi raisi o'rinbosari tadqiqoti.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi tasdiqlangan edi. Qaror ijrosining ta'minlanishi natijasida barcha axborot tizimlari yagona platformaga o'tkazildi. Natijada soliq to'lovchilarning hisobot topshirish jarayoni 5–7 barobargacha yengillashib, inson omili aralashuvi 60 foizga qisqardi, shuningdek, qog'oz shaklidagi hujjat ishlari ham keskin kamaydi.

Hujjatda Business Intelligence va Big Data texnologiyalarini joriy etish strategiyaning asosiy vazifalaridan biri sifatida kiritilgan edi. Bu texnologiyalarning joriy etilishi yashirin iqtisodiyotda xufiyona aylanmalar darajasini qisqartirib, soliq solinadigan bazani kengaytirdi. Aholi va biznes uchun qulayliklarni oshirish, inson aralashuvini kamaytirish maqsadida soliq ma'muriyachiligi jarayonlari izchil raqamlashtirilmoqda.

Ma'lumotlarni qayta ishlash markazi ana shu yo'lda amalga oshirilgan yana bir yirik loyiha bo'ldi. Prezidentimizning 2020 yil 30 oktabrdagi "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, Davlat budjetidan ajratilgan 100 milliard so'm evaziga binolar ta'mirlanib, uzluksiz elektr ta'minoti qurilmalari, pretsizion konditsionerlar, katta hajmli server va kompyuterlar bilan jihozlandi. Bu, birinchi navbatda, axborot tizimlarining samarali va uzluksiz ishlashini ta'minlash, soliq to'lovchilarga elektron xizmatlar ko'lamini kengaytirish, sifatini oshirishga xizmat qilyapti. Chunki zamonaviy xizmatlardan foydalanuvchilar soni juda tez ortib bormoqda.

2021 yilning o'zida soliq to'lovchilar tomonidan shaxsiy kabinetdan foydalanishlar soni 40,5 million tani (2020 yilga nisbatan 1,3 barobar ko'p), yuborilgan elektron hisobvara-q-fakturalar soni 33,9 million tani (2020 yilga nisbatan 1,6 barobar ko'p), onlayn nazorat kassa mashinalari orqali ro'yxatga olingan cheklar soni 417,4 million tani (2020 yilga nisbatan 4 barobar ko'p) tashkil etdi.

Sohaga tatbiq etilayotgan raqamli texnologiyalar samarasi o'laroq, soliq to'lovchilar bilan shaxsiy kabinetlari orqali to'liq elektron muloqot o'rnatildi. Bugungi kunda dunyoning istalgan joyida turib ro'yxatdan o'tishdan boshlab, soliq majburiyatini oxirigacha to'liq bajarish uchun imkoniyatlar yaratildi. Elektron xizmatlardan foydalanishlar soni o'tgan 2 yilda 3 barobarga va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 30 foizga oshdi.

Tadbirkorlik subyektlari va fuqarolarga ko'rsatilgan 85,1 millionta elektron xizmatlarning to'rtidan bir qismi elektron soliq hisobotlarini topshirish va soliqlarni to'lash bilan bog'liq bo'lib, ularni shaxsiy kabinet va elektron to'lov tizimlari orqali to'lash hajmi 22,3 trillion so'mga yetdi.

"E-ijara", "E-imtiyoz", "Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari", "Soliq tekshiruvlari", "Avtomatlashtirilgan kameral nazorat tizimi", "Soliq uzilishi koeffitsiyenti", "K-Savdo" kabi yangi dasturiy mahsulotlar ishlab chiqildi. "Soliq"

mobil ilovasining funksional imkoniyatlari kengaytirildi. Tizimlar kiberhujumdan himoyalaniishi darajasi oshirildi. Xususan, kiberhujumlarning oldini olish bo'yicha "WAF" dasturiy-apparat majmuasining tatbiq etilishi tufayli oyiga taxminan 100 mingdan ortiq hujumlarning oldi olinmoqda.

Ayni kezda barcha hisobvaraq-fakturalar elektron tarzda rasmiylashtirilmoqda. Barcha tadbirkorlik subyektlarining ro'yxatga olish ma'lumotlari qayta ko'rib chiqilib, undagi xato va kamchiliklar bartaraf etilishi, boshqa vazirlik hamda idoralar ma'lumotlari bilan birxillashtirilishi ta'minlandi. 2022 yildan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i, aylanmadan olinadigan soliq, yer, mol-mulk va aksiz soliqlari Davlat soliq qo'mitasida mavjud elektron ma'lumotlar asosida avtomatik ravishda shakllantirish mexanizmi yo'lga qo'yildi.

Bundan tashqari, idoralarimizda elektron hujjat aylanish tizimi joriy etilgan bo'lib, bugungi kunda qariyb 11 ming soliq organlari xodimlari shu tizim asosida ishlayapti."⁴

Raqamli iqtisodiyotning barqaror ishlashi bevosita rivojlangan infratuzilmaga bog'liq. Davlat siyosati quyidagi infratuzilmaviy yo'nalishlarni qamrab oladi:

- keng polosali internet va 5G tarmoqlarini joriy etish
- ma'lumotlarni qayta ishlash markazlari (data center)ni rivojlantirish
- milliy bulutli platformalar va raqamli identifikatsiya tizimlarini yaratish
- kiberxavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan texnik va institutsional

mexanizmlarni shakllantirish

Bu jarayonda davlat ko'pincha xususiy sektor bilan hamkorlikda (PPP modeli) infratuzilma loyihalarini amalga oshiradi.

Institutsional jihatdan esa maxsus raqamli rivojlanish agentliklari, IT-parklar va innovatsion klasterlar tashkil etiladi.

Raqamlashtirish siyosatining muvaffaqiyati bevosita inson kapitaliga bog'liq. Davlat:

- ta'lim tizimiga IT va raqamli savodxonlik fanlarini integratsiya qiladi
- qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini kengaytiradi
- ilmiy-tadqiqot va startap ekotizimini qo'llab-quvvatlaydi

Bu orqali raqamli iqtisodiyot sharoitida raqobatbardosh mehnat bozori shakllantiriladi.

Xulosa

Maqolada iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayoni, davlat siyosatining asosiy maqsadlari va amalga oshirilayotgan strategiyalar batafsil yoritilgan. Raqamli iqtisodiyotning muvaffaqiyati normativ-huquqiy bazani takomillashtirish,

⁴ 2020 yil 25 yanvardan chiqa boshlagan. "YANGI O'ZBEKISTON" Ijtimoiy-siyosiy gazetasining, № 140 (662), 2022 yil 13 iyul, chorshanba kundagi sonining, Iqtisodiyotning asosiy drayver haqida Hayotjon Nasrulloev, Davlat soliq qo'mitasi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari departamenti direktori tadqiqoti.

infratuzilmani rivojlantirish, inson kapitalini oshirish va innovatsiyalarni rag‘batlantirishga bog‘liq. Elektron hukumat tizimi, soliq ma‘muriyatchiligi va boshqa sohalarda raqamlashtirish natijalari iqtisodiy samaradorlikni oshirish, shaffoflikni ta‘minlash va korrupsiyani kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, xavf va muammolarni, jumladan, ma‘lumotlarni himoya qilish, raqamli platformalarni tartibga solish va kiberxavfsizlikni ta‘minlash lozimligi ta‘kidlangan. Raqamli iqtisodiyotning barqaror ishlashi infratuzilma, malakali kadrlar va innovatsion ekotizimga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari, 2020–2021.
2. Vazirlar Mahkamasi qarorlari, “Soliq ma‘muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”, 2020.
3. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi va Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining hisobotlari, 2020–2025.
5. Global ma‘lumotlar barometri (The Global Data Barometer — GDB), 2021.
6. 2020 yil 25 yanvardan chiqa boshlagan. “YANGI O‘ZBEKISTON” Ijtimoiy-siyosiy gazetasining, № 140 (662), 2022 yil 13 iyul, chorshanba kundagi sonining, Raqamlashtirish to‘g‘risidagi bo‘limi.
7. 2020 yil 25 yanvardan chiqa boshlagan. “YANGI O‘ZBEKISTON” Ijtimoiy-siyosiy gazetasining, № 140 (662), 2022 yil 13 iyul, chorshanba kundagi sonining, Iqtisodiyotning asosiy drayver haqida Nodir Jumayev, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, iqtisodiyot fanlari doktori, professor tadqiqotlari.
8. 2020 yil 25 yanvardan chiqa boshlagan. “YANGI O‘ZBEKISTON” Ijtimoiy-siyosiy gazetasining, № 140 (662), 2022 yil 13 iyul, chorshanba kundagi sonining, Iqtisodiyotning asosiy drayver haqida Zohidjon Ziyayev, Davlat statistika qo‘mitasi raisi o‘rinbosari tadqiqoti.
9. 2020 yil 25 yanvardan chiqa boshlagan. “YANGI O‘ZBEKISTON” Ijtimoiy-siyosiy gazetasining, № 140 (662), 2022 yil 13 iyul, chorshanba kundagi sonining, Iqtisodiyotning asosiy drayver haqida Hayotjon Nasrulloev, Davlat soliq qo‘mitasi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari departamenti direktori tadqiqoti.